

TARIXIY ROMANLARDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING BADIY VAZIFASI.(YULDUZLI TUNLAR ROMANI MISOLIDA).

Sottorova Nilufar Tura qizi

*Osiyo texnologiyalar universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti
nilufarsottorova94@gmail.com*

Tarixiy roman janrida til birliklari, xususan, onomastik vositalar muhim poetik va kompozitsion ahamiyat kasb etadi. Onomastika (antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqalar) badiiy matnda nominativ funksiyadan tashqari estetik, ramziy va g'oyaviy yukni ham o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, tarixiy romanlarda onomastik birliklar asarning tarixiy asosini mustahkamlash, davr ruhini jonlantirish hamda milliy koloritni yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani o'zbek tarixiy nasrining yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda onomastik birliklar tizimi asarning g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Asar buyuk sarkarda va shoir Z.M.Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, undagi tarixiy shaxs nomlari, joy nomlari va sulola atamalari voqealarning real tarixiy zaminga ega ekanini ko'rsatadi.

Antroponimlarning badiiy estetik vazifasi. Roman matnida qo'llangan antroponimlar bir necha funksiyani bajaradi. Avvalo, ular tarixiy haqiqatni tasdiqlovchi faktologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Bobur, Umar Shayx Mirzo, Qutlug' Nigorxonim, Ahmad Tanbal kabi nomlar asardagi voqealarning tarixiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Muallif real tarixiy shaxslarni badiiy to'qima bilan uyg'unlashtirgan holda, davr ijtimoiy-siyosiy muhitini jonli tasvirlaydi. Antroponimlarning yana bir muhim vazifasi - obrazni individuallashtirishdir. Masalan, Bobur nomi nafaqat tarixiy shaxsni bildiradi, balki ma'rifatparvar hukmdor nozikta'b shoir va jasur sarkarda timsolini mujassamlashtiradi. Shu tariqa ism semantik jihatdan kengayib, ramziy-estetik mazmun kasb etadi. Qahramon ismi uning nasl-nasabi, sulolaviy mansubligi va siyosiy mavqeyini ham anglatadi. Shuningdek, tarixiy romanlarda laqab va unvonlar ham muhim onomastik birlik sifatida namoyon bo'ladi. "Mirzo", "xon", "bek" kabi unvonlar qahramonlarning ijtimoiy maqomini ko'rsatibgina qolmay, davr ierarxiyasini ham ifodalaydi. Bu esa asarning tarixiy koloritini kuchaytiradi. Toponimlarning kompozitsion roli. Romanda toponimlar voqealar geografiyasini aniqlashtirish bilan birga, syujet rivojida kompozitsion tayanch vazifasini bajaradi. Andijon, Samarqand, Kobul, Hindiston kabi joy nomlari Bobur hayot yo'lining bosqichlarini belgilaydi. Masalan, Andijon- qahramonning bolalik va shakllanish maskani sifatida tasvirlanadi. Samarqand esa temuriylar saltanatining ramziy markazi bo'lib, hokimiyat va siyosiy kurash timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Kobul va Hindiston toponomlari esa qahramonning yangi hayot bosqichi yangi tarixiy sahifalar ochilgan makon sifatida tasvirlanadi.

Toponimlar asarda makon va zamon uyg'unligini ta'minlaydi. Ular voqealarning tarixiy xaritasini yaratib, o'quvchini muayyan davr muhitiga olib kiradi. Shu bilan birga, ayrim joy nomlari ramziy ma'no kasb etib qahramon taqdiri bilan uyg'unlashadi. Etnonim va sulola

nomlarining g'oyaviy ahamiyati. Romanda etnonimlar va sulola nomlari ham muhim badiiy vazifa bajaradi. Temuriylar sulolasi nomi nafaqat tarixiy dinastiyani bildiradi, balki ma'lum bir siyosiy-ma'naviy meros timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu nom orqali muallif milliy davlatchilik g'oyasini ilgari suradi. Etnonimlar turli qabila va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Ular orqali davrning etnik tarkibi, siyosiy ittifoqlari va qarama-qarshiliklari tasvirlanadi. Natijada onomastik birliklar asarning tarixiy-panoramasini kengaytiradi. Onomastik birliklarning ramziy va stilistik funksiyasi. Tarixiy roman poetikasida onomastik birliklar stilistik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ayrim nomlar muayyan g'oyaviy yukni tashiydi, obrazning ichki dunyosini ifodalashga yordam beradi. Nom tanlash jarayoni muallifning badiiy niyatini aks ettiradi.

Shuningdek, onomastik birliklar matnning realizm darajasini oshiradi. Ular tarixiy fakt va badiiy to'qima o'rtasida muvozanat yaratadi. Real tarixiy nomlar ishonchlilikni ta'minlasa, badiiy qayta ishlash esa estetik yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Yulduzli tunlar" romanida onomastik birliklar ko'p qatlamli badiiy vazifani bajaradi. Antroponimlar obrazlarni individuallashtiradi va tarixiylikni ta'minlaydi; toponimlar voqealar makonini aniqlashtirib, kompozitsion tayanch vazifasini bajaradi; etnonim va sulola nomlari esa asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. Shunday qilib, tarixiy romanlarda omonimika tizimi nafaqat nominativ birliklar majmuyi balki asarning poetik strukturasini shakllantiruvchi muhim badiiy unsurdir. Uni lingvopoetik jihatdan o'rganish tarixiy nasrning estetik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. O'zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2010.
2. Nurmonov A, Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi- Toshkent, O'qituvchi: 2014.
3. Qodirov P. Yulduzli tunlar Toshkent: Sharq nashriyoti 2019.
4. Qo'ng'urov R. Badiiy matn lingvistikasi. Toshkent: Akademya nashr, 2016.
5. Sodiqov Q. Tarix va badiiy tafakkur. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. Z.M. Bobur Boburnoma, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.